
Stadionlar bosh rejasini loyihalashda ko'p minglik tomoshabinlarni evakuatsiya qilish vaqtida turli oqimlarni kesib o'tmaydigan transport yo'llari joylashishi, turli shahar va shaxsiy transport vositalarini to'xtash joylarini odamlar oqimi bilan kesishmasligi bilan bog'liq. Bunda asosiy kirish va ichki magistrallar joylashishi belgilanadi.



**162-расм.** Йирик олимпия стадионлари бош ареналарининг схемалари: 1 – Москва олимпия стадиони бош аренаси, сиғими 105 минг томошабин; 2 – Берлин олимпия стадиони бош аренаси, сиғими 100 минг томошабин; 3 – Хелсинки олимпия стадиони бош аренаси, сиғими 70 минг томошабин; 4 – Лондон олимпия стадиони бош аренаси, сиғими 85 минг томошабин; 5 – Лос-Анжелес олимпия стадиони, сиғими 105 минг томошабин; 6 – Рим олимпия стадиони бош аренаси, сиғими 80 минг томошабин; 7 – Мелбурн олимпия стадиони бош ареаси, сиғими 100 минг томошабин.

Bosh rejada stadion 3ta asosiy qismga bo'linadi:

1. Demonstratsion- sport arena va tribunalar, tomoshabinlarga xizmat ko'rsatish, sportchilar, hakamlar boshqaruvi, matbuot, televideniye va radio xonalari;
2. O'quv mashg'ulot qismi- sport maydonchalari va maydon joylashgan bo'lib, ularning ba'zilari demonstratsion xarakterga ega;
3. Xizmat ko'rsatish qismi- tomoshabinlarni dam olish maskanlari, kafe, kiosklar, sanitariya inshootlari, stadionni ekspluatasiya qilish bilan bog'liq inshootlar-xo'jalik xovlisi, uxtaxonalar, omborlar va boshqalar.

Quyida stadionning maydonlar balansi keltirilgan umumiy maydoni 9ga tribunasi 15000 o'rindiqli:

1. Ochiq sport inshootlari:maydonlar va maydon- 34%;
2. Katta o'lchamli sport inshootlari- 12%;
3. Xizmat ko'rsatish inshootlari- 6%;
4. Ichki yo'laklar va tarqatuv maydonchalar- 14%;
5. Ko'kalamzor- 34%.
6. Jami- 100%

Stadion loyihalashda maydon tanlashga ta'sir etuvchi asosiy sharoitlar:

1. Stadionlar va sport maydonlari orientatsiyasi shimol-janub o'qiga parallel joylashishi yoki shimoliy g'arb tomonga  $5^0$  va shimoliy sharqtomonga  $10^0$  og'ishi bilan joylashtirish mumkin.
2. Maydon relyefining yaroqliligi, tribunalar asosan g'arb tomonga joylanishi, tribunalar 30% nishablik bilan joylashis, shamol yo'nalishidan himoyalash, hududni maksimal ko'kalamzorlashtirish 50% gacha.

Stadionlarni loyihalash me'yorlarida quyidagi tavsiyalar berilgan:

-evakuatsiya qilishda stadion tashqarisida tarqatuvchi maydon  $0.5-0.75m^2/$  1ta tomoshabinga loyihalanishi kerak;


-kirish kassalari 1500 kishiga 1 ta darcha;

-stadionda eng kamida ikkita kirish bo'lishi kerak. Yo'l, yo'lak, o'tish va kirish joylari 1m eniga -500 kishiga bo'lish kerak;

-tribunalar oralig'ida tarqatuvchi maydonlar qo'llanilishi kerakva bir tomoshabin uchun  $0.5m^2$ -o'rtacha stadionlarda,  $0.3m^2$ -katta stadionlarda.

Me'yorlar talablariga ko'ra tomoshabin o'rinlari seksiyalarga ajratilishi kerak. Har bir seksiyadagi qator 50 o'rindan oshmasligi va qatoq chuqurligi (eni) 75-80 sm bo'lishi kerak. O'rindiq balandligi  $h=45sm$ .

Tribuna profili to'siqsiz ko'rinishini ta'minlash uchun, oldinda o'tirgan tomoshabin ko'ziga nisbatan orqada o'tirgan tomoshabindan kamida 15sm pastda bo'lishi kerak.




### Universal sport zallar.

Universal sport zallar sportning taraqqiy etishi natijasida va yil davomida sport turlari (gimnastika, og'ir va yengil atletika, boks, sport o'yinlari, velopoygalar, xokkey, konkida figurali uchush va boshqalar) bo'yicha o'quv mashqlari, demonstratsiya ishlari olib borilishi natijasida paydo bo'ldi. Universal sport zallari tribuna, mashg'ulot zallari va quyidagi tomoshabin va sportchilarga xizmat ko'rsatish xonalaridan iborat: tomoshabinlar uchun- vestibyullar, kularlar, bufetlar, kiosk, xojatxonalar; sportchilar




uchun- vestibyul, garderoab, kiyim almashtirish xonalari, dush va xo'jatxonalar, massaj, tibbiyot qismi, hakamlar, trenerlar xonalari, bufetlar, uslubiyat xonalari, dam olish xonalari; xo'jalik-ma'muriy xonalar- rahbariyat, xo'jalik bo'limi, kassalar, muhofaza xonasi, o'quv bo'limi, pochta, telegraf va boshqalar; yordamchi, texnik qo'shimcha xonalar- sovutish moslamalari uchun, isitish, shamollatish, transformator podstansiyasi, ustaxonalar va boshqalardan iborat. Zal sportchilar va tomoshabinlar uchun barcha turagi zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan.




## Yopiq sport suv havzasi.

Xonalar guruhi universal sport zallariga o'xshaydi. Faqat suzish uchun mo'ljallangan suv havzasi va unga yordamchi suvni tozalaydigan texnik xonalar, quruq suzish zali mavjud.



Sportchilarning basseyn zalida harakatlanish ketma-ketligi. Sanitar-gigeyenik talablarga ko'ra vestibyul va garderob, ro'yxat bo'limi, kiyim almashtirish, o'quv mashg'ulot zali (quruq suzish), zalga kiraverishdagi dush moslamalari, basseynli zal. Zaldan chiqish ketma-ketligi teskari tartibda amalga oshiriladi.



## *Mavzu: Savdo, maishiy xizmat ko'rsatish bino va inshootlari.*

### *Yopiq bozorlarning shakllanishi.*

Yopiq bozorlar maxsus savdo sotiq uchun ixtisoslashgan jamoat binolari bo'lib, qadimiy shaharlarning jamoat maydonlari hayot arenasi, shuningdek xalq yig'inlari bilan birgalikda savdo-sotiq ishlari olib borilgan.

Shaharlar kattalashgani sari aholining oziq ovqatga taladi oshadi. Katta sig'imli 500 savdo o'rin va undan ortiq bozorlar shahar markazida, o'rta va kichik sig'imli savdo o'rinlari 500tagacha bozorlar esa tuman ahamiyatiga ega yopiq bozorlar hisoblanadi.

Yopiq bozorlar hajmiy-rejaviy tuzilmasiga qarab bir zalli (kichik), ikki-uch zalli (o'rtacha va katta), pavilion ko'rinishidagi (turli sig'imli) bozor turlariga bo'linadi.


Bozorlarning xizmat ko'rsatish radiuslari o'rtacha 1-1.5 km, kichik shaharlarda esa 1.5-2 km dan oshmasligi kerak. Yopiq bozorlarda transport vositasi bilan kirish qulay bo'lishi uchun tashqi yuk oqimi va xaridorlar oqimi alohida bo'lishi kerak.

Ajratilgan yer maydoni 1.5 ga, tumanlarda 0.5 ga bozor binolarining hajmiy-rejaviy tuzumida bino qavatlari, harorat-namlilik rejimi, shamollatish, tabiiy yoritganlik va intererlarning yechimlari kata ahamiyatga ega. Savdo zalining intererini yaratishda quyidagilarga e'tibir berish kerak:

-savdo zallari keng va to'siqsiz bo'lishi;

-devor yuzalari, orayopma, vitrajlar va pollar silliq, uzoq vaqtga chidamli hamda tozalashga qulay bo'lishi kerak;

-intererdagi ranglar mahsulot ranglarini neytrallashtirishmay tabiiy ranglarni yaqqol ko'rsatadigan, mahsulotga baho berishga to'sqinlik qilmasligi kerak.



179-расм. Бозорлар биноларининг архитектуравий ечимлари:  
 А – Волокаламск шаҳридаги қурилмалари чинор дарахтидан қурилган деҳқон бозори; 1 – давлат савдоси павилёни; 2 – очиқ савдо; 3 – ёрдамчи хоналар; 4 – сокол; Б – Москва шаҳридаги Перов бозори: 1 – савдо зали; 2 – машинадан сотиш жойи; 3 – ёзги савдо; 4 – сут ва гўшт маҳсулотлари зали; 5 – меҳмонхона; 6, 8 – хўжалик ҳовлиси; 9 – дебаркадер.

Savdo markazlari.

Zamonaviy sharoitda barcha xizmatlar bir joygamujassamlashtirgan binolar komplekslari ya'ni maishiy xizmat, umumiy ovqatlanish va boshqa savdo xizmat

korxonalari savdo markazlari deyiladi. Bunda xaridorlar talablarini keng qamrovda qondiradi va qulayliklar yaratdi.

Savdo markazlari xizmat ko'rsatish xarakteri va sotiladigan mahsulotlar turiga qarab ikki asosiy guruhga bo'linadi:


1. Birinchi navbatda zaruriy bo'lgan mahsulotlar non, go'sht, baliq, sut mahsulotlari, konditer hamda shaxsiy gigevena predmetlari;
2. Bular asosan keng iste'mol mollari bo'lib, har bir oilada doimiy sotib olinmaydi. Tayyor kiyimlar, poyafzallar, gazlamalar, bosh kiyimlar, radio, foto mahsulotlar, maishiy elektr, zargarlik, mebel va boshqalar.

Savdo markazlar kichiktuman, turar joy tumani, shahar savdo markazlari bo'lishi mumkin. Savdo markazlari konstruktiv setkalari 9x9m, 9x12m. Agar bino 18, 24, 36m va undan ziyod bo'lgan proletlar bilan yopilsa yanada tejamkor va qulaydir.

**Аҳолига хизмат кўрсатиш тармоқларининг  
табақалаштирилган меъёрлари**

Корхона тури	Ўлчов бирлиги	Ҳар 1000 киши учун ПиНу асосидаги меъёр	Корхоналар, хизмат кўрсатувчилар		
			Микрораён, шунингдек, турар жой гуруҳлари	Турар-жой тумани	Шаҳар
Озиқ-овқат дўконлари	Ишчи ўрни, %	3,2 1000	1,8–1,9 55–60	0,8–1 25–30	0,3–0,5 10–20
Саноат моллари дўконлари	Ишчи ўрни, %	3,4 100	0,3 10	1,5 45	1,5 45
Умумий овқатланиш корхоналари	Хўранда ўрни, %	25 100	13–15 55–60	7–5 25–20	5 20
Маиший хизмат кўрсатиш корхонаси	Ишчи ўрни, %	8-10 100	2,5–3 30	3–4 40	2,5–3 30


## Umumiy ovqatlanish muassasalari.



182-расм. Умумий овқатланиш муассасасининг функционал асослари.


Umumiy ovqatlanish muassasalarining funksional asoslari.

Umumiy ovqatlanish muassasalari yopiq va ochiq turlarga bo'linadi. Yopiq turdagi tarmoqqa- sanoat muassasalari qoshida, maktab, bolalar bog'chasi, oliy o'quv yurtlari, shifoxona va sanatoriyalar- sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. Ochiq turdagi tarmoqqa- umumshahar qurilish hududlarda, mehmonxonalarda, savdo-sotiq jamoasi markazlarida va barcha yo'llarda umumiy ovqatlannish muassasalari kiradi.





183-расм. Умумий овқатланиш муассасасилари асосий гуруҳ хоналарининг тизими ва технологик боғланиши.






Oshxonalar eng ko'p tarqalgan ovqatlanish muassasasi hisoblanadi va ularning sig'imi 50, 100, 150, 250, 300, 400, 500 o'rinli bo'ladi. Sanatoriya va dam olish maskanlari uchun 500, 700, 1000 o'rinli (yozgi mavsumni qo'shgan holda) bo'lishi mumkin.

Restoranlar - eng yuqori talablar keltirilgan bo'lib, yarim tayyor ovqatlar konkret zakazlar bo'yicha xizmat amalga oshiriladi. Bundan tashqari xo'randalarga xordiq chiqarishi uchun musiqa va estrada chiqishlar, o'yinlar va boshqa ko'ngil ochar dasturlar tashkil etiladi. Sig'imi 100, 150, 200, 250, 300 va 500 o'rinli bo'lishi mumkin.



189-расм. Миллий ва замонавий услубларнинг чойхона ва ресторанлар архитектурасуга таъсири (Тошкентдаги «Кўк гумбаз» мисолида).

Kafelar- xo'randalarga tayyorlanishi uncha murakkab bo'lmagan issiq va sovuq taomlarni taklif qilishi bilan xizmat qiladi. Kafe xizmat darajasiga qarab yuqori, birinchi va ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Birinchi va ikkinchi darajaliga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kiradi. Kafelar sig'imi 25, 50, 75, 100, 150, 200, 250, 300, 400 o'rinli kafelar ixtisoslashgan bo'lishi mumkin.



191-расм. Ўзига жалб қилувчи «Риввера» ресторани (Киев).  
Тарзи, тархи.

Choyxonalar- bu turdagi muassasalar juda katta tarizga ega bo'lsada bugungi kunda oshxona vazifasini bajarmoqda. Choyxonalar asosan 2 turga bo'linadi. Birinchisi, aholi yashash joylarida, mahalla, mavze va qishloq joylarida, ikkinchisi esa tumanlarda, savdomarkazlarida va bozorlarda, aholi juda gavjum joylarda bo'ladi. Birinchisi o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish bo'lsa, ikkinchisi ofitsant orqali xo'randaga xizmat ko'rsatadi. Umumiy ovqatlanish muassasalarda zallar 70% umumiy maydondan joy egallaydi. 1 kishi uchun zalning maydoni quyidagicha: choyxonalarda-  $1.5\text{m}^2$


kafelarda- $2.0m^2$

restoranlarda- $2.5m^2$

maxsus restoranlarda  $3-3.5m^2$ ni tashkil

qiladi.

Umumiy ovqatlanish muassasalarining kompozitsiyaviy joylashishi.



### **Mavzu: Ma'muriy maishiy binolar.**

Respublikamiz hayotining ideologik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa barcha jabhalarida rahbarlik qiluvchi davlat va ma'muriy-xo'jalik boshqaruv apparatlar organi, shuningdek, muassasalar hamda tashkilotlarni joylashtirish uchun maxsus ma'muriy binolar quriladi. Ularning vazifa va maqsadlari turlicha: vazirliklar, hokimiyatlar, qishloq fuqarolik yig'inlari (mahalla), trestlar, xalq sudi, davlat banki va jamoa xo'jaliklari boshqaruvi binolaridir. Boshqaruv idoralari, binolari, muassasalari turiga va maqsad yo'nalishiga ko'ra tasniflanadi. Ular bir yoki bir nechta muassasalar, tashkilotlar joylashgan bo'lishi mumkin.

Bir muassasa yoki yoki tashkilot uchun respublikamizda quyidagi binolar barpo etiladi:

-davlat muassasalari, oliy majlis kotibiyati va devonxonalar, Vazirlar Mahkamasi kotibiyati, vazirliklar, davlat qo'mitalari yoki respublika ahamiyatiga molik markaziy muassasalar;

-o'lka, viloyat, shahar yoki tuman ahamiyatidagi xalq deputatlarining kengashlari, qishloq kengashlari;

-partiyalar va jamoat tashkilotlari;

-ma'muriy xo'jalik muassasalari, birlashmalar, trestlar, boshqarmalar, bo'limlar, idoralar, agentliklar, inspeksiya va hakazo;

-loyihalash institutlari, konstruktorlik binolari;

-yuridik muassasalar, sud, prokuratura binolari;

-pul kredit muassasalari, davlat banki, tijorat banklari, bo'limlari;

-aloqa muassasalari- shahar, tuman, boshqaruv idoralari va ularning bo'limlari, telefon, televizor, radiomarkazlar;

-nashriyot, bosmaxona va redaksiyalar.

Bir yo'nalishdagi binolarni kooperatsiyalash kerak bo'ladi, masalan:

-davlat, respublikaga tegishli bo'lgan uylar;

-adliya idoralari, sudlar, shahar, tuman sudlari, notarial idora, yuridik maslahat, sud va prokuraturaga tegishli uylar;

-davlat banki bo'limlari, tijorat banki kassalari bilan birga binolar va boshqalar.

### Ma'muriy binolarning shahar qurilishidagi ahamiyati.

Har bir ma'muriy markazda bir nechta boshqaruv loyiha tashkilotlari mavjud bo'lib, bular shahar markazini arxitekturasini belgilaydi va hajmiy-fazoviy kompozitsiyasiga qarab, maydonda yoki ko'chada dominantlik qiladi, muhim rejaviy tugunning orientri bo'lib xizmat qiladi. Poytaxtlarda va mintaqa markazlarida hukumat majmualari alohida ajralib turadi. Ular fazoviy funksiyalari bo'yicha murakkab mujassamlashmagan simmetrik yoki erkin kompozitsiyalarni tashkil etadi. Viloyat markazlarida va yirik shaharlarda asosiy maydonlar hokimiyat boshqaruvida bo'lib, viloyat va shahar tashkilotlari bilan birlashtiriladi, koperatsiyalanadi.

### Ma'muriy binolarning xonalari.

Kabinetlar 9-12m<sup>2</sup>dan 54-60m<sup>2</sup>gacha, majlislar, kengashlar zallari umumiy binoning 40-50%ni tashkil etadi va 1 o'rin uchun 0.7-0.8m<sup>2</sup> maydon ajratiladi. Garderobli vestibyullar 1 kishiga 0.25m<sup>2</sup> maydon ajratiladi. Umumiy ovqatlanish xonalari bino umumiy sig'imining 20%ini tashkil qiladi. 50 kishidan ko'p bo'lgan binolarda bufetlar, 250 kishidan ko'p hodim mavjud bo'lgan binolarda esa oshxonalar loyihalanadi. Binolardagi xonalar o'zining turkumlari, xillari va strukturasi qarang alohida loyihalash uchun topshiriq- programmalar bilan bajariladi. Ma'muriy binolar asosan karidorli rejalashtirish bilan loyihalanadi va kompozitsiyasi chiziqli, tarqoq va hovli tevaragi bo'yicha berk bo'lishi mumkin. Ma'muriy binolar xonalarining balandliklari poldan shiftgacha 3.3m, osma shiftgacha 2.7m, koridorlarda 2.4m gacha kamaytirish mumkin.


### Mehmonxonalar.

Mehmonxona binolari odamlarning qisqa vaqt davomida yashashlari va madaniy-maishiy xordiq chiqarishlari uchun loyihalanadi. Mehmonxonalar umumiy tip, dam olish(kurort), turistik, sportsalon, tranzit passajir, avtoturist(motel) va boshqa tiplarga bo'linadi. Mehmonxonalar komfortliligi, sig'imi, texnik jihozlanganligi va taklif etiladigan xizmat ko'rsatish hajmiga qarab O'zbekistonda va xalqaro maydonda 5ta qurilish razryadiga bo'linadi.

### Хоналарнинг таснифланиши

Хонанинг қурилиш разряди	Хонадаги ўринлар сони	Хоналар ичкарисидаги қўшимча хоналар сони	Хонанинг яшаш майдони, м <sup>2</sup>	Хонадаги сантехник жиҳозлар
Олий (люкс)	1	1	12-14	Ванна, ювиниш мосл., унитаз, биде, сочиқ, қуритиш мосла
	2	1	14-20	
	2	2	22-40	
	2	3	50-60	
I	1	1	9-12	Ванна, ювиниш мосл., унитаз, биде, сочиқ, қуритиш мосламаси
	2	1	12-14	
	2	2	22-25	
II	1	1	9	Душ, ювиниш мосл., унитаз
	2	1	12-14	
	3	1	22	
	2	2	25	
III	1	1	9	Душ, ювиниш мосл., унитаз
	2	1	12-14	
	3	1	15-18	
IV	1	1	9	Душ, ювиниш мосл., унитаз
	2	1	12-14	
	3	1	15-18	
	3	1	18-20	
	4	1	23-24	


### Mehmonxonalarining funksional tuzilishi.



194-расм. Меҳмонхоналарда вестибюл хоналарини ташкил этишнинг функционал схемаси:


I – 50 ўринга мўлжалланган меҳмонхоналарда қабул хизматчи гуруҳи бир томонлама жойлашиши; II – 100 ўринга мўлжалланган меҳмонхоналарда қабул хизматчи гуруҳининг икки томонлама жойлашиши; 1 – вестибюл; 2 – зина; 3 – маъмурият навбатчиси; 4 – касса; 5 – дирекция (директор раҳбарлигидаги маъмурият); 6 – порте; 7 – почта; 8 – гардероб; 9 – юк олиб кириш; 10 – мижозларга хизмат кўрсатиш бюроси; 11 – кутиш зали; 12 – эркаклар учун санузел; 13 – аёллар учун санузел; 14 – телефон.

Funksional xonalar qabul qilish va xizmat ko'rsatish vestibyul guruhi, yashash xonalar guruhi, umumiy ovqatlanish xonalari guruhi, ma'muriy xonalar guruhi, yordamchi va xo'jalik xonalari guruhi va muhandislik jihozlar xonalari guruhi. Mehmonxonalarda umumiy maydonning 50%dan ortig'i yashash xonalarini tashkil etadi. Unda 1 kishi uchun  $9m^2$ , ikki kishi uchun  $12m^2$  ni tashkil qiladi, ammo bu me'yor mehmonxonalarining razryadiga qarab o'zgaradi. Masalan, 4- razryadli xonada  $24m^2$  ni tashkil etadi.



196-**расм.** Кам сигимли меҳмонxonани функциясига кўра ташкил этиш схемаси:

1 – маъмурият; 2 – маъмурият навбатчиси; 3 – порте (меҳмонхона швейсари); 4 – алоқа бўлими; 5 – вестибюл; 6 – бар; 7 – нонушта қилиш учун зал; 8 – буфет; 9 – тарқатиш жойи; 10 – тайёрлаш жойи; 11 – хужралар; 12 – ёрдамчи хоналар; 13 – идора ходимлари хонаси; 14 – номерлар.




197-**расм.** Меҳмонxonalarнинг асосий функционall боғлиқлиги схемаси:


1 – турар жой қисми; 2 – ресторан; 3 – жамоат хоналари; 4 – зина; 5 – лифт; 6 – маъмурият; 7 – идора хоналари; 8 – савдо хонаси; 9 – ёрдамчи хоналар; 10 – вестибюл; 11 – маъмурият навбатчиси; 12 – порте; 13, 14 – алоқа бўлими; 15 – гардероб; 16 – ҳожатхона.





Xonalarning bog'liqlik sxemasi.Motellar- avtoturistlar uchun mehmonxonalar.





Тарзи



Тархи



Апартамент номери



Люкс номери

198-расм. Кичик (100 ўринли) меҳмонхона лойиҳаси.

## Mavzu: Transport inshootlari.

Temir yo'l, avtomobil, havo va suv transportlari vokzallari.

Vokzallar o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha bir qator turlarga tasniflanadi, ya'ni foydalanilayotgan transport turlari va tayinlanishi va magistral o'rni, o'tkazish xususiyati va sig'imi hamda passajirlar kategoriyasiga ko'ra tasniflanadi. Bular temir yo'l vokzallari va povilionlari, avtobus vokzal va povilionlari, aerovokzallar, shahar vokzallarining agentliklari, portva prigallar.

Vokzallarning rejayiy strukturasi ichki yo'nalishlarga qatnovchi yo'lovchilar bilan xorijga chiqib ketuvchi yo'lovchilarni ajratish va ularning chegara hududidagi bojxonada hujjatlarini rasmiylashtirish kerak bo'ladi. Vokzal joylashtiriladigan joyni tanlash va uning arxitekturaviy-fazoviy sxemasi, shahar transport bog'lanishlari bosh reja rivojlanishi asosida, shuningdek, aerovokzallarda shovqin sanitar talablar va tabiiy sharoitlarni uyg'unlashuvi asosida aniqlanadi.

Vokzal oldi maydonlar o'lchamlari:

-qishloq joylarda 0.25ga;

-shaharlarda 2.5- 5ga va undan ortiq;

Ba'zi yirik vokzallar 8-10 ga gacha bo'lishi mumkin. Perronlar eni 2.5m dan kam bo'lmasligi va 6 m gacha bo'ladi. Ular vokzal binosiga nisbatan katta maydonni egallaydi. Bu poezdlarning uzunligi 150-200m va undan katta aylanish radiuslari 70-100m bo'lgan ko'p o'rinli samolyotlarga asosan aniqlanadi. Platformalarni qisqatirish maqsadida arrasimon qirrali va taroqsimon bo'ladi.(avtobuslar 30<sup>0</sup>, 45<sup>0</sup>, 60<sup>0</sup>, 90<sup>0</sup> burchak ostida joylashtiriladi).

Asosiy xonalar guruhlari:


-passajirlar uchun: zal, kutish zallari, ona va bola xonalar, restoranlar, kafe va bufetlar, savdo do'konlari, ma'lumot berish shahobchalari, pochta, telegraf;

-ma'muriy xizmatchi xonalar: navbatchi dispecherlar stansiya va vokzal bo'yicha, xodimlar xonalari, aloqa jihozlari va boshqalar;


-texnik xonalar: qozonxona, boylernaya, transformatornaya, ventilyatsiyaya'ni shamollatish, omborxonalar.

Kutish zali har bir passajir uchun 1.3:3.9 m<sup>2</sup> gacha; restoran, kafelar sig'imi vokzal sig'imidan 10 %ni tashkil etishi kerak.

Vokzallar umumshahar ahamiyatiga ega bo'lib shahar haqida ba'zan butun mamlakat haqidagi birinchi taassurotni o'zida ifoda etadi. Bu arxitekturaviy kompozitsiyaga ta'sir etadigan maxsus talabdir. Turli sig'imli vokzallarning konstruktiv yechimlari turlicha bo'lib 6x6m, 6x12m, 6x18m o'lchamdagi tayanch setkalar va boshqa katta proletrlarni yopadigan vant konstruksiya, obolochkalar bilan yopilgan.



**202-расм.** Санкт-Петербург шаҳридаги Финлянд вокзали. Тарх.  
 1 – аванзал; 2 – бош оператсион зал; 3 – шаҳар атрофига қатнайдиған поездлар чиптахонаси; 4 – кутиш зали; 5 – узоқ йўлга қатнайдиған поездлар чиптахонаси; 6 – буфет; 7 – почта; 8 – юк сақлайдиған бўлим; 9 – метрога кириш вестибюли.



**203-расм.** Закопан шаҳридаги (Полша) автобус вокзали.  
 Умумий кўриниш, тарх.  
 1 – оперетсион зал; 2 – чиптахона; 3 – юк сақлайдиған хона; 4 – буфет;  
 5 – йўл назоратчиси хонаси; 6 – кутиш хонаси; 7 – ёпиқ платформа.

Ko'chada harakatlanayotgan transportlarning to'xtash punktlari.

Me'yoriy hujjatlarga asosan keng jamoatchilik tashrif buyuradigan joylardagi jamoat transporti to'xtaydigan punktlargacha oraliq masofa 500m bo'lishi kerak. Alohida turdagi jamoat transportlarining to'xtash punktlarigacha oraliq masofa:

-tramvay uchun 400m dan 600m dan ko'p bo'lmasligi kerak;

-avtobus traybus uchun 600m dan ko'p emas

-tezyurar tramvay uchun 800m dan kam emas;

-tezyurar avtobus uchun 800m dan kam 1200m dan ko'p emas.

Xavfsizlik talablariga ko'ra tramvay bekatlari peshexod o'tish joyidan avval(piyoda yaqinlashayotgan transportni ko'rishi uchun), traybus va avtobus bekatlari bekatlari aksincha o'tish joyidan so'ng(harakatlanish yo'nalishi bo'yicha) joylashtirish kerak. Transportlarga chiqish orolchalarining kengligi 1.5m dan 3m gacha bo'lishi tavsiya etiladi, uzunligi 20m.

Yer osti va yer usti o'tish joylari.

Balandliklari, chuqurliklari odatda 3-3.5m kengligi 1m kenglik soatiga 2000 kishi.

Yer usti o'tish joylari magistral yoki maydonning arxitekturaviy-fazoviy kompozitsiyasiga uyg'unlik bilan kiritilishi lozim.

Avtomobillarni saqlash joylari.

Turar joylardagi garajlar va avtoturar joylar avto o'rinlarning taxminiy hisobi quyidagi jadvalda:

Inshoot va moslamalar	Har 1000 aholi uchun avto o'rin	
	Birinchi navbatda	Hisobiy muddat
Turli tipdagi garajlar	35-40(10-15 xonadonga 1 o'rin)	100-120( 2-5xonadonga 1 o'rin)
Doimiy saqlash uchun avtoturargoh	100-120 (20-3- xonadonga 1 o'rin)	20-50( 7-10 xonadonga 1 o'rin)
Shu jumladan vaqtincha saqlash	10-15	20-30


Avroturargoh o'lchamlari 1.7x4.1m; 2.2x4.6m, kattaroq mashinalarga 2.7x5.3m, o'rtacha 2.5x5m hamma uchun. Avtomobillarni brilish radiuslari 5.5-6m.

**Турли мақсадлардаги объектлар яқинидаги автомобилларни вақтинча сақлаш жойларининг сони**

Оммавий ташриф буюриладиган бино ва иншоотлар	Ҳисобий birlik (қиймат)	Ҳисобий birlik учун машина ўрни сони	
		Биринчи навбатда	Маълум бир муддат учун
Илмий-техник ва таълим марказлари, илмий-тадқиқот ва лойиҳалаш институтлари	100 нафар ишловчига	3–5	10–20
Олий ўқув юртлири, университетлар	100 ўқитувчи ва ходимларга	3–5	10–15
Маъмурий-хўжалик муассасалари	100 нафар ишловчига	3–5	10–20
Умумий овқатланиш муассасалари; ресторан ва кафелар (олий табақадаги)	100 ўринга	3–5	10–20
Бошқа умумий овқатланиш муассасалари	100 ўрин учун	3–5	7–10
Маданий-оқартув муассасалари: театр, кинотеатрлар	100 ўринга	3–5	10–15
Бошқа маданий-маърифий муассасалар	Ўринлар сонига	2–4	7–10
Маиший хизмат ва савдо корхоналари	Савдо майдони 100 м <sup>2</sup> бўлганда	2–4	7–10
Бозорлар	50 савдо ўринга	5–10	20–25
Меҳмонхоналар	100 ўринга	3–5	10–20
Поликлиникалар	Бир сменада 500 ташриф буюрувчига	3–5	10–15
Трибунали 500 ўрин ва ундан ортиқ сифимли спорт бино ва иншоотлари	Ўринлар сонига	1–2	3–5
Дам олиш зоналари (спорт, чанғи, балиқчилик, овчилик, туристик)	Бирданига 100 та ташриф буюрувчига	2–3	5–7
Мотеллар ва кемпинглар	Ҳисобий сифимига кўра	–	–
Темирйўл ва автобус вокзаллари, аэропортлар	Енг тиғиз вақтда ҳар 100 пассажирга	3–5	10–15


*Metropoliten yo'nalishlarini loyihalash.*

Loyihalash uchun asosiy materiallar: trassa bo'yicha muhandis geolog qidiruv natijalari, shaharning qurilgan va loyihalalanayotgan qurilish maydonlari, yer osti va muhandislik kommunikatsiyalar tushirilgan tipografik sxema va profil, shahar jamoat transportining boshqa turlari haqida ma'lumotlar hamda metropoliten trassasining to'g'ri tanlashga ta'sir ko'rsatadigan boshqa ma'lumotlar kiradi. Metropoliten tonnellarining gabaritlari: eni 2.7m, balandligi 3.7m, bekatlar orasidagi masofa 1.5- 2km. bekatlar asosan to'g'ri uchastkalariga, ilojsiz hollarda radiusi 800m dan kam bo'lmagan egri joylarda ham joylashtirilishi mumkin. RASM. 204, 205



**204-расм.** Ер остидаги метро бекати вестибюли:

1 – эскалатор зали; 2 – чипта сотиш зали; 3 – чиптахоналар; 4 – лоджия; 5 – хизматчи хоналар; 6 – телефон-автоматлар хонаси.



**205-расм.** Метро бекати:

А – ер устига яқин метро бекати; 1 – оролча кўринишида; 2 – аралаш;  
 Б – ер остига чуқур жойлашган устунли бекат; Д – йўловчиларнинг  
 йўналишдан-йўналишга ўтиш жойи: 1 – биринчи йўналиш; 2 – иккинчи  
 йўналиш.




**Mavzu: Davolash profilaktika binolari.**

**Kasalxona va poliklinikalar.**


Tibbiyot muassasalari maqsadli belgilanishiga ko'ra turli va keng nomenklatuta tiplarga ega. Shifoxona, tug'ruqxona, poliklinika, dispanser va profilaktoriyalarda kasalliklarga tashxis qo'yish va davolash shuningdek, davolashdan oldingi nazorat ishlari olib boriladi. Dorixona, tez yordam, sanitariya-epidimologiya stansiyalari, laboratoriyalar tibbiy xodimlarni maxsus faoliyat olib borishi uchun tashkil etiladi.

### Shifoxonalar tiplari.

Aholi kontengetiga ko'ra shifoxonalar viloyat, o'lka, respublika, shahar, tuman va qishloq shifoxonalariga bo'linadi. Profiliga ko'ra ko'p profilli va bir profilli yoki maxsuslashtirilgan turlarga ya'ni sil, psixatrik, ortopedoxirurgik va boshqalar. Bolalar uchun mo'ljallangani esa bolalar shifoxonasi deb atalib, ular ham ko'p profilli va maxsuslashtirilgan bo'lishi mumkin. Yuqumli kasalliklar shifoxonalari maxsus guruhni tashkil qiladi. Ta'lim berish va ilmiy maqsadlardagi shifoxonalar klinika deb ataladi. Umuman olganda shifoxonalar sog'liqni saqlashdagi aniq masalalarni bir butun tibbiy muassasalarning tizimidir.



**207-расм.** Поликлиникадаги асосий хоналарнинг боғланиш тизими:  
1 – асосий кириш; 2 – рўйхатга олиш бўлими; 3 – шифокорлар хоналари; 4 – даволаш бўлимлари (аёллар бўлими, ёш болалар ва ўсмирлар бўлими, тери касалликлари бўлими); 5 – электр қуввати билан даволаш бўлими; 6 – сув ва балчиқ билан даволаш бўлими; 7 – жарроҳлик бўлими; 8 – ренген бўлими; 9 – лабораториялар; 10 – дорихона.




**208-расм.** Касалхоналарда қабул бўлими хоналарининг боғланиш тизимлари:

1 – асосий кириш; 2 – кўриш хоналари; 3 – тиббий назорат хоналари; 4 – кийиниш хонаси; 5 – муолажа ва боғлаш хонаси; 6 – рентген хонаси; 7 – шифокорлар хонаси; 8 – қабул қилиш хонаси.

Shifoxonalarni loyihalashda asosiy masala bu bemorlarga maksimum qulay sharoit yaratish. Shifoxonaga tegishli bog' va maydonlarni shifoxona sig'imiga bog'liq ravishda qurilish me'yorlariga ko'ra bajariladi. Ya'ni 1 o'ringa 80m<sup>2</sup> dan 350m<sup>2</sup> gacha maydon ajratiladi. Zamonaviy shifoxonalar quyidagi strukturaviy bo'linmalardan tashkil topgan:



qabul bo'limi va konsultatsiya, palatalar bo'limi, davolash, tashxis bo'limi, laboratoriyalar, markaziy sterillash, dorixona, oziq ovqat tayyorlash, ptologik-anatomik(morg), ma'muriy xo'jalik bo'limlari. Sig'im shifoxonaning kompozitsion yechimi aniqlovchi muhim ko'rsatgichlardan biridir. Shifoxonalar sig'imlari 100-3000 o'ringacha bo'lishi mumkin. Kichik va o'rta shifoshifoxonalar 300-400 o'rinli bo'lib, soddaroq konfiguratsiya va bir korpusda joylashadi. Yirik shifoxonalarda hajmiy fazoviy yechimlar yanada murakkabdir. Hozirgi davrda shifoxonalarning qavatlilik yong'in xavfsizligi talabiga ko'ra, 9 qavatgacha chegaralangan bo'lib, agar tegishli asoslar va yong'in xavfsizligi ta'minlanishi signalizatsiya, xonalarni sprinklerlash va boshqalar bilan ko'p qavatli binolarni loyihalashga ruxsat etiladi. 600-800 o'rinli shifoxona 7-12 qavat, yirik shifoxonalar esa 20 va undan baland bo'lishi mumkin. Shifoxonalarning strukturaviy bo'linmalariga qo'yiladigan asosiy talablar: qabul bo'limi birinchi qavatda joylashishi va kichik palatalar bilan ta'minlanishi(tashxis qo'yilmagan bemorlar uchun) kerak, vestibul oldida tez yordam mashinalari uchun yopiq tambur bo'lishi kerak. Palata bloklari ikkinchi qavatdan boshlab joylashtirish kerak bo'lib, bemorlarga xizmat qilish, davolash, qo'riqlash qulay bo'lishi kerak. Operatsiya bloki boshqa bloklardan to'liq ajratilgan bo'lib, changdan himoya sifatida yuqori qavatlariga joylashtirish kerak. Operatsiya bloki 3ta zonadan- operatsiya zali, operatsiya oldi va narkozlash, apparat va shifokorlar xonasidan iborat bo'lib, bemor shlyuz orqali, tibbiy xodimlar esa sanitariya o'tish joyi orqali kiradi. Rentgenologik bo'lim 150 o'ringa 1 ta xona hisobida qabul qilinadi. Fizioterapevtik bo'lmda davolash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: elektr bilan davolash 35-40%, yorug'lik bilan davolash 20-25%, issiqlik bilan davolash 10-15%, suv bilan davolash 16-18%, balchiq bilan davolash 10%ni tashkil qiladi.



**209-рasm.** Рентген бўлими хоналарининг жойлашиш тизими:


A – даволаш ва ташхис хонаси; Б – кутиш хонаси; Д – муолажа хонаси; Е – фотолаборатория; Ф – ҳожатхона; Г – коридор; 1 – даволаш ва таҳлил учун стол; 2 – расмлар ва фотоплёнкалар учун стол; 3 – расмлар ва фотоплёнкалар учун штатив; 4 – рентген аппарати хонаси; 5 – химоя экранни; 6 – ёзув столи; 7 – бошқариш столи; 8 – химоя эшиги; 9 – ечишиш хонаси; 10 – махсус стол; 11 – фотоплёнкалар учун стол; 12 – ишчи стол; 13 – қуриштиш шкафи; 14 – қўл ювиш учун умивалник; 15 – стол; 16 – диван; 17 – юмшоқ узун курси; 18 – асбоблар учун шкаф; 19 – ёзув столи; 20 – кийим осийш учун илгаклар.

Laboratoriyalar gemotologik, biologik, umumiy klinik va biokimyo bo'lib, baktireologik laboratoriya alohida kirish joyiga ega bo'lishi kerak.

Sterilizatsiyalash bo'limi ikki-«toza» va «streb» zonadan iborat bo'lishi kerak. Dorixonani birinchi qavatda loyihalash qulaydir. Morg laboratoriya, seksion tekshiruv ishlar va motam(taziya) xonalaridan iborat bo'lishi kerak.


Ovqatlanish va tayyorlash bloki alohida korpuslarda joylashtiriladi. Kir yuvish xonalari kasal turlariga qarab ajratiladi va tozalash jarayoni turlarini inobatga olgan holda loyihalanadi.

Sil va yuqumli kasalliklar shifoxonalarida palatalrni g'arbiy va janubiy g'arbiy tomonga orientatsiyalash ruxsat etilmaydi. Operatsion va reanimatsiya bloklari derazalarini shimoliy sharqiy va shimoliy g'arbiy tomonga qaratish kerak, qizib ketmasligi uchun.



### Poliklinikalar.

Poliklinika 2 turga bo'linadi: turar joy hududidagi va shifoxonaga qarashli poliklinikalar. Poliklinikaning shifoxonadan farqi ularda palata bo'limi yo'qligi va xizmat ko'rsatish 1 smenaga 100-200dan 1000-1500 kishigacha o'zgarib turadi. Kutish joylari umumiy maydondan 20-30% tashkil etadi va koridorning kengligi 3.2m dan kam bo'lmasligi har bir xonalar guruhi uchun xoll-kutish joylari mo'ljallanish kerak.



Sanitariya, kurort, dam olish va sayyohlik muassasalari.

Aholini profilaktik davolash va dam olishini ta'minlash maqsadida sanatoriyalar, dam olish uylari, kurort mehmonxonolari va boshqa salomatlikni tiklash muassasalari tashkil etiladi. Bunda dam olish va davolash asosan tabiiy usulda amalga oshiriladi. Aholini dam olishi va davolanishi uchun maxsuslashtirilgan kattalar, o'smirlar va bolalar sanatoriyalari; maktab o'quvchilari uchun sanatoriya-lagerlar; sanatoriya profilaktoriyalar; dam olish uylari va pansionatlar; dam olish bazalari; yoshlar oromgohlari; maktab faollari uchun oromgohlar; maktabgacha bolalar muassasalarining dala hovlilari; turistik mehmonxonalar; turistik bozorlar, motellar; kempinglar; bolalar uylari quriladi.

Sanatoriyalar – asosiy davolash profilaktika qilish muassasasi bo'lib, davolanish asosan tabiiy vositalar bilan amalga oshiriladi (mineral suv, balchiq, havo va h.k.) va dam olishlari uchun zarur shart sharoit bilan ta'minlaydi.

Yoshlar oromgohi- asosiy maqsadi aktiv dam olishni tashkil etish, badantarbiya sport, trustik o'quv hordiq chiqarish shakldagi dam olish shakllarini mujassamlashtirgan.


Turistik bazalar-turistlarning o'z o'ziga xizmat ko'rsatishlariga ruxsat etadi.


Motel-avtoturistlar uchun yuqori darajadagi mehmonxonona xizmatini va avtotransportga to'liq kompleks texnik xizmatko'rsatishni ta'minlaydi.

Kemping- odatda mavsumiy ekspluatatsiya qilinadigan muassasa bo'lib, avtoturistlar uchun dam olishlari va barcha turdagi kompleks xizmat ko'rsatish soddalashtirilgan tartibda ta'minlaydi. Yotoq joylari, yengil tipdagi uychalarda yoki chodirlarda ovqatlanish o'z-o'ziga xizmat qilish prinsiplari asosida.

Yashash xonalarining o'rinlar soni va maydonlari quyidagicha:

Муассасалар	Хоналардаги ўринлар сони	1 ўринга м <sup>2</sup> майдон (камида)
Санаториялар, санатория-профилакторийлар	1	9
Пансионатлар, олий ва биринчи разрядли дам олиш уйлари	2	6
Болали оилалар учун I–III разрядли саёҳат базалари ва дам олиш базалари	2–4	6,0
Худди шундай, мавсумий фойдаланиладиган базалар	2–4	4,5
Ёшлар лагерлари, бутун йил бўйи ишлайдиган болалар оромгоҳлари	2–4	4,5
Болалар учун ёзги оромгоҳлар	8–10	
Ёзги павилёнлар	15–20	3,5–4,0
Туристтик кўналгалар, кулбалар, кемпинглар	4–8	4,5






II. Хонларнинг икки томонлама жойлашиш усуллари




212-расм. Дам олиш уйларининг тузилиши:



Санаториялар асосий биноларининг композицион жойлаштириш усуллари



213-расм. Санаторияларнинг асосий хоналарининг функционал жойлашуви: 1 – асосий кириш; 2 – маъмурият; 3 – ётоқхона гуруҳи; 4 – даволаш гуруҳи; 5 – кўп функционал спортзал; 6 – ошхона гуруҳи; 7 – ошхонанинг ёрдамчи хоналари; 8 – спортмайдони



214-расм. Даволаш гуруҳи асосий хоналарининг функционал жойлашуви: 1 – асосий кириш; 2 – бўлим бош шифокори; 3 – кутиш хоналари; 4 – таъхис хоналари; 5 – шифокорлар хоналари; 6 – дам олиш хонаси; 7 – даволаш хоналари; 8 – иқлим билан даволаш хоналари; 9 – ёрдамчи хоналар.